Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti "Amaliy ingliz tili" kafedrasi o'qituvchisi; E-mail: boboqulovanilufar237@gmail.com)

TILSHUNOSLIKDA MAQOL VA MATALLARNI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDAN FARQLASH MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikda maqol va matallarni frazeologik birliklardan farqlash masalasi qisqacha tahlil qilinadi. Ularning semantik, struktur va funksional xususiyatlari hamda somatik komponentli misollar asosida lingvomadaniy ahamiyati yoritiladi. Natijada maqol va matallar frazeologik tizim tarkibida bo'lsa-da, nisbatan mustaqil paremiologik qatlam ekanligi ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *frazeologiya, maqol, matal, paremiologiya, semantika, somatik komponent, lingvomadaniyat.*

Бобокулова Нилуфар Хайрулло кизи (Преподаватель кафедры «Практический английский язык», Термезский государственный педагогический институт; E-mail: boboqulovanilufar237@gmail.com)

ПРОБЛЕМА РАЗЛИЧЕНИЯ СТАТЕЙ И АФОРИЗМОВ ОТ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В статье кратко рассматривается проблема различения пословиц и поговорок от фразеологических единиц в лингвистике. Анализируются их семантические, структурные и функциональные особенности, а также лингвокультурное значение на основе соматических примеров. Исследование показывает, что, хотя пословицы и поговорки принадлежат к фразеологической системе, они образуют относительно независимый паремиологический слой.*

Ключевые слова: *фразеология, пословица, поговорка, паремиология, семантика, соматический компонент, лингвокультура.*

Boboqulova Nilufar Khayrullo qizi (Lecturer, Department of Practical English, Termez State Pedagogical Institute; E-mail: boboqulovanilufar237@gmail.com)

THE ISSUE OF DISTINGUISHING ARTICLES AND SAYINGS FROM PHRASEOLOGICAL UNITS IN LINGUISTICS

Annotation. *This article briefly examines the problem of distinguishing proverbs and sayings from phraseological units in linguistics. Their semantic, structural, and functional features, as well as their linguocultural significance based on somatic examples, are analyzed. The study concludes that although proverbs and sayings belong to the phraseological system, they form a relatively independent paremiological layer.*

Keywords: *phraseology, proverb, saying, paremiology, semantics, somatic component, linguoculture.*

Kirish (Introduction). Tilni mukammal egallash faqatgina grammatik qoidalarni bilish yoki lug'atni yodlash bilan cheklanmaydi. Tilni chuqur o'rganish va amaliy jihatdan erkin qo'llay olish frazeologiyani ham puxta o'zlashtirishni talab etadi. Frazeologik birliklar – tilning eng boy va rang-barang qatlamlaridan biri bo'lib, ular xalqning obrazli tafakkuri, milliy xarakteri va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shu sababli frazeologik tizimni o'rganish tilni mukammal egallashda muhim ahamiyat kasb qiladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli xalqlar o'rtasidagi muloqot tobora kengayib bormoqda. Bu esa tilning frazeologik tizimini, xususan maqol va matallarni ilmiy jihatdan tahlil qilishni dolzarb vazifga aylantiradi. Maqol va matallar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va boy shakllaridan bo'lib, ular odatda hayotiy haqiqat, axloqiy qadriyat yoki xalq tajribasini qisqa va lo'nda shaklda ifodalaydi.

Maqollar mustaqil ma'no kasb qiluvchi, umumiy hayotiy haqiqatni ifodalovchi iboralar hisoblanadi. Ular, ko'pincha, nasihat, ogohlik yoki ma'naviy tavsiyalarni o'zida mujassamlashtiradi va kontekstga bog'liq bo'lmasdan ishlatiladi. Matallar esa qisqaroq va ko'pincha ikki qismdan iborat bo'lib, aniq bir vaziyat yoki hodisani tasvirlashga xizmat qiladi. Frazeologik birliklar esa tilning metaforik va ko'chma ma'noli qatlamini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Frazeologik birliklar tarkibiy qismlarining ma'nosi butun ifoda ma'nosiga to'liq teng kelmaydigan, nutqda tayyor holda qo'llanadigan barqaror birikmalardir. Tilshunoslikda ularni tasniflash masalasiga turli yondashuvlar mavjud: V.V.Vinogradov frazeologizmlarni uch turga ajratadi:

- frazeologik srachleniyalar (idiomalar);
- frazeologik birliklar;
- frazeologik birikmalar [1].

Keyinchalik, N.M.Shanskiy bu tasnifni kengaytirib, frazeologik ifodalar, ya'ni maqol, matal va qanotli iboralarni ham frazeologiya doirasiga kiritadi. Shu jihatdan, maqol va matallar frazeologik tizimning alohida, lekin mustaqil semantik-funktsional qatlamini tashkil etadi [4]. Tadqiqotlarda maqol va matallarning semantik tuzilishi, obrazliligi hamda milliy tafakkur bilan bog'liqligi, ayniqsa, somatik komponentlar,

ya'ni inson tana a'zolari nomlari ishtirokidagi birliklarda yaqqol ko'rinadi: "bosh", "ko'z", "til", "burun", "quloq" kabi somatik komponentlar o'zbek va ingliz maqollarida turli semantik ma'nolarni ifodalaydi. Bu komponentlar: aql va tafakkur; hissiyot va idrok; nutq va axloq; ijtimoiy munosabatlar kabi tushunchalar bilan bog'lanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tilshunoslikda maqol va matallarni frazeologik birliklardan farqlash masalasiga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil, semantik tahlil kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tilshunoslikda maqollar, matallar va frazeologik birliklarni tahlil qilish alohida o'rganish obyekti hisoblanadi. Ularning har biri xalq og'zaki ijodining muhim shaklini ifodalaydi, ammo ma'nosi, shakli va qo'llanilishi jihatidan farq qiladi. Bu farq tilni o'rganish, adabiy tahlil va nutq madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Maqol bu xalqning o'tmishdagi tajribasi va dunyoqarashini qisqa, lo'nda va oson esda qoladigan shaklda ifodalovchi iboradir. Maqol, odatda, mustaqil fikrni ifodalaydi, hayot haqidagi umumiy haqiqatni ta'kidlaydi va aniq sintaktik shaklga ega. Ular, ko'pincha, maslahat, ko'rsatma yoki ma'naviy qadriyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Matal esa, ko'pincha, ikki qismdan iborat va asosan majoziy ma'noga ega.

Frazeologik birliklar bu so'zlarning individual ma'nolaridan farq qiladigan ma'noga ega bo'lgan lingvistik birikmalarning shakllaridir. Masalan, "sudralib yurish" iborasi tom ma'noda "oyoqlarini sudrab yurish" degani emas, balki "sekin, qiyinchilik bilan harakat qilish" degan ma'noni anglatadi. Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati shundaki, ularning ma'nosi metaforik yoki majoziy bo'lib, o'rnatilgan shaklda qo'llaniladi. Shu bilan birga, maqol va matallar ko'pincha frazeologik birliklar bilan adashtiriladi, chunki ularning barchasi tilning aniq, mazmunli va ixcham shakllari hisoblanadi. Ularni farqlashning asosiy mezoni birlikning to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita ma'nosi va kuchidir. Maqol va matallar so'zlarning to'g'ridan to'g'ri ma'nosiga asoslangan, odatda, kontekstdan mustaqildir. Boshqa tomondan, frazeologik birliklar so'zlarning asosiy ma'nosidan farqli ma'noni anglatadi va lingvistik normalarga muvofiq o'rnatilgan shaklda qo'llaniladi.

Somatik maqollar orqali insonning ruhiy holati, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy tajribasi umumlashtirilgan holda ifodalanadi. Shu sababli ular oddiy frazeologik birliklardan ko'ra kengroq semantik va pragmatik imkoniyatga ega. Maqollar mustaqil fikr va umumlashma bildiradi: *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi* – hayot saqlansa, qolgan narsa topiladi. *Two heads are better than one* – maslahatlashib ish qilish foydali. Somatik komponentli maqollar inson hayoti, aqli va tajribasi bilan bog'liq umumiy xulosani ifodalaydi. Didaktik (pand-nasihat) mazmunni ifodalaydigan maqollar axloqiy xulosa beradi. *Avval o'yla, keyin so'yla. A slip of the tongue is worse than a slip of the foot* [6;22-b.].

Tilshunoslikda matal maqolga yaqin, ammo to'liq xulosa bermaydigan birlik hisoblanadi: *Yaxshi gapga quloq sol* – matal (davomi bo'lishi mumkin). *Yaxshi gapga quloq sol, yomon gapga uloq sol* – maqol (to'liq hukm).

Maqol va matallar frazeologik birliklardan semantik yakunlanganligi bilan farqlanadi: *"Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi"* yoki *"Two heads are better than one"* kabi maqollar mustaqil hayotiy xulosani bildiradi, holbuki, *"bosh qotirmoq"* yoki *"ko'ngli tog'dek"* singari frazeologizmlar faqat gap tarkibida ma'-no kasb etadi. Shuningdek, maqollar didaktik mazmunga ega bo'lib, *"Avval o'yla, keyin so'yla"* hamda *"A slip of the tongue is worse than a slip of the foot"* kabi birliklar axloqiy pand-nasihatni ifodalaydi, frazeolo-gizmlar esa ko'proq obrazli tasvir vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, somatik komponentli maqollarda umumlashma ma'no kuchli namoyon bo'ladi: *"Ko'z–qalb ko'zgusi"*, *"The eyes are the mirror of the soul"*, *"Til jarohati bitmas"* kabi misollar insonning ruhiy va axloqiy holatini umumlashtirib beradi, bu esa ularni oddiy frazeologik birliklardan ajratib turadi [7;31-b.].

Maqollar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiradi. Ular til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi hamda milliy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi vosita hisoblanadi. Shu bois maqol va matallarni frazeologik birliklardan ajratib o'rganish:

•paremiologiya va frazeologiya chegaralarini aniqlash;

•milliy tafakkurni tadqiq qilish;

•qiyosiy tilshunoslikni rivojlantirish uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [3;39-b.].

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations). Tilshunoslikda maqol va matallar hamda frazeologik birliklar o'rtasidagi farq murakkab, ammo ilmiy jihatdan muhim deb hisoblanadi. Bu masala tilshunoslik, frazeologiya va paremiologiya sohalari kesishmasida joylashgan bo'lib, adabiy va nutqiy jarayonlardagi ma'no va funksiyalarning aniq tasnifini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maqol va matallar semantik jihatdan to'liq, asosli hukmlarni yoki umumiy hayot tajribalarini ifodalaydi, ular didaktik va umumlashtiruvchi mazmunni o'z ichiga oladi, ya'ni, ular tinglovchiga yoki o'quvchiga ma'lum bir hayotiy yoki axloqiy xulosani yetkazishga xizmat qiladi.

Grammatik jihatdan, maqol va matallar mustaqil jumlalar shaklida bo‘ladi, bu ularning kontekstga bog‘liqligini kamaytiradi va ularni frazeologik birliklardan ajratish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular lingvistik va madaniy ma’lumotlarni keng miqyosda aks ettiradi. Ular madaniyat, an’analar, tarixiy va ijtimoiy tajribani o‘zida mujassam etadi. Bu xususiyatlar maqol va matallar til tizimida o‘ziga xos mustaqil qatlamni tashkil etishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, maqol va matallarni frazeologiyaning alohida, mustaqil paremiologik qatlami sifatida o‘rganish ilmiy jihatdan muhimdir. Bu nafaqat ularning semantik va strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, balki ulardan nutq va didaktik kontekstlarda samarali foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, maqol va matallarning paremiologik tahlili lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Виноградов В.В. Фразеология современного русского языка. Русский язык. Грамматическое учение о слове. М., “Высшая школа”, 1972, с. 23–45.

(2). Кунин А.В. Основные типы английских фразеологических единиц. Англо-русский фразеологический словарь. М., “Русский язык”, 1984, с. 5–20.

(3). Пермяков Г.Л. Пословицы и поговорки как объект лингвистического исследования. От поговорки до сказки. М., “Наука”, 1970, с. 12–40.

(4). Шанский Н.М. О границах фразеологии и составе фразеологических единиц. Фразеология современного русского языка. М., “Просвещение”, 1985, с. 48–62.

(5). Rahmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 7–18-betlar.

(6). Speake J. Proverbs as a cultural and linguistic phenomenon. Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford, Oxford University Press, 2008, p. 1–25.

(7). Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek tilida frazeologiyaning nazariy masalalari. Hozirgi o‘zbek tilida frazeologiya. Toshkent, “Fan”, 2006, 30–55-betlar.

Tojiboyev Doniyor Dilshodovich (Alisher Navoiy nomidagi nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

HOJI MUIN PUBLITSISTIKASIDA KONNOTATSIYANING NUTQIY VOQELANISHI

Annotatsiya. *Maqolada ma’rifatparvar jadid adibi Hji Muin Shukrullo og‘lining publitsistik maqolalarida qo‘llangan ko‘chimlarning semantik voqelanishi o‘rganilgan. Adib maqolalari tilining semantik-sitilistik rang-barangligini ta’minlagan ko‘chimlarning turli konnotatsion ma’nolari lisoniy tasniflangan.*

Kalit so‘zlar*: uzual ma’no, okkazional ma’no, ramziy ma’no, denotat, konnotativlik, semantika, semema, stilistik ma’no, grammatik ma’no, kollokatsiya, kolligatsiya, ellipsis.*

Тоджибоев Даниёр Дильшодович (независимый исследователь Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои).

ВОПРОСЫ КОННОТАЦИИ В РЕЧИ В ПУБЛИЦИСТИКЕ ХАДЖИ МУИНА

Аннотация. *В статье исследуется семантическая реальность метафор, используемых в журналистских статьях просвещенного писателя-джадида Хджи Муина Шукрулло оглу. Проводится лингвистическая классификация различных коннотационных значений метафор, обеспечивающих семантико-стилистическое разнообразие языка статей автора.*

Ключевые слова: *обычное значение, случайное значение, символическое значение, денотация, коннотативность, семантика, семема, стилистическое значение, грамматическое значение, коллокация, коллигация, эллипсис.*

Tojiboyev Daniyor Dilshodovich (is an independent researcher at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi)

THE SPEECH OCCURRENCE OF CONNOTATION IN THE PUBLICISTICS OF HAJI MUIN

Annotation. *The article studies the semantic reality of metaphors used in the journalistic articles of the enlightened Jadid writer Hji Muin Shukrullo oglu. The various connotational meanings of metaphors that provide the semantic-stylistic diversity of the language of the writer's articles are linguistically classified.*

Keywords: *usual meaning, occasional meaning, symbolic meaning, denotation, connotativity, semantics, sememe, stylistic meaning, grammatical meaning, collocation, colligation, ellipsis.*

Kirish. Publitsistik asar tilining xarakterli xususiyatini belgilovchi omillardan birini informativ (axborot beruvchi) mazmundagi matnning aniqligi, ravonligi, obrazliligi va ta’sirchanligini ta’minlashdagi so‘z ko‘chma ma’nosining lingvopoetik imkoniyatlari tashkil etadi. Badiiy matndagi singari publitsistik asarlar tilida ham leksemalararo konnotatsiyaning muallifning maqsadi, uning ichki dunyosi, ruhiy holatini